

HADISLARNING MAZMUNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Shomurotova Nilufar Davronbek qizi Urganch Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yoʻnalishi 212-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz hadis ilmining mazmun-mohiyatini, uning hozirgi kundagi ahamiyati haqida maʼlumotlarga ega boʻlasiz. Hadislarning yaratilishi va unda qanday insoniy sifatlar ulugʻlangani haqida chuqur bilimlarni egallab olasiz. Hadislar inson kamolotining mezonini hisoblanadi. Ular bizning tafakkurimizni, dunyoqarashimizni kengaytiradi.

Kalit soʻz: Hadislar, inson kamoloti, Islom taʼlimoti, toʻgʻrilik, insofli va adolatli boʻlmoq, tafakkur, dunyoqarash, qiyomat, yuksak hislar, moʻmin kishi.

Abstract: Through this article, you will get information about the essence of hadith science and its importance today. You will acquire deep knowledge about the creation of hadiths and what human qualities are glorified in them. Hadiths are a measure of human perfection. They expand our thinking, our worldview.

Key words: Hadiths, human perfection, Islamic teachings, correctness, being honest and fair, thinking, worldview, resurrection, high feelings, a believer.

Kirish: Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan boʻlib, bu fazilatlar sirasiga oʻzgalarga mehr- oqibat koʻrsatish, saxiylik, ochiq koʻngillilik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruwatli boʻlish, ularga gʻamxoʻrlik qiysh, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulugʻlash, halollik, poklik, doʻstlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgoʻylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning oʻzini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand- nasihatlar ham oʻz aksini topganki, bularning barchasi Qurʼoni Karimda qayd etilgan koʻrsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon boʻlib xizmat qiladi. Islom taʼlimoti gʻoyalariga koʻra har bir musulmon eng avvalo iymon- li boʻlishi kerak. Qurʼoni Karimda

ta'kidlanganidek, Islom dini ta'limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e'tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'lab ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqoda bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamoq'i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog'i. Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o'tiladi. Bu belgilarning har biri inson ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: «qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur», «o'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz» (3-4-boblar); «Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:
- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq» (20-bob).

Hadislarda ota-onaning farzand oldidagi burchlari orasida axloq maqomi oldingi o'ringa qo'yilgan. Bunda ota-ona farzandiga beradigan barcha moddiy boyliklar-u ne'matlaridan odob ustun sanaladi. Zero, "hech bir ota-ona o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi" deyilishi bejiz emas.

Shuningdek, quyidagi o'gitlarda ham yuqoridagi ibratomuz fikrlarning turli ma'no qirralari aks etgan. "Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, Tangri uning umrini uzaytiradi", "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz", "Agar ota-onang birdaniga chaqirsa, avval onangga

javob qil” va boshqalar. Bu pand-nasihatlar Zardusht, koinlar va payg‘ambarlarning nasihatlarl sifatlada bayon etilgan.

Muhimi shundaki, ularda nasllar va qarindoshlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-oqibatning zarurligi ta’kidlanadiki, bu axloqiy da’vat katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi va hamma davrlar uchun ibratli qadriyat sifatlada bugungi kunda ham barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Hadislarda inson erki, ozodligi va unga dahl qilmaslik masalalari- ning yoritilishiga ham katta ahamiyat berilgan.

Islom ta’limotida hartomonlama etuk bo’lishi uchun insonning erkin bo’lishi kerakligi borasidagi fikrlar Qur’oni Karimda ham, Hadisu sharifda ham birdek e’tirof etilgan. Xususan: «Ollloh taologa farzlardan so’ng amah solihlarning eng sevimlisi musulmon kishining diliga xursandchilik sohshdir» (33-hadis); «Ollloh o’zi kechirguvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko’radi» (191-hadis); «Ollloh taolo zulm qilmagan qozi bilan birgadir. Agar qozi jabr qilsa, Ollloh undan uzoqlashadi va shayton unga yaqinlashadi» (194-hadis) kabi hadislar buning yaqqol dalihdir. Chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezgulik va yaxshiliklar insonga yo’naltirilgan bo’lsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson ham shunga ko’ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko’tariladi, o’z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat ham rivojlanaveradi.

Demak, hadislar Muhammad payg’ambarimizning sunnatlarl bo’lib, mazmunan har bir mo’minning ishonchi, e’tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma’naviy kamolotga etaklaydi. «Islom dini ma’rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqhy, jismoniy jihatdan kamolga etkazishga oid e’tiqod va iymondan iborat bo’lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyjanob bo’hsh, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qihb eyish, jaholat va jaholatparastlikka yo’l qo’ymaslik, o’z birodarining, qarindosh- urug’larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir». Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika tarixi 2-qism darslik Toshkent-2005
2. Йўлдошев Ж. Ҳасанов С. “Авесто”да ахлоқий-таълимий қарашлар. -Т.: Ўқитувчи, 1992.
3. Махмудов Т.М. «Авесто» ҳақида. - Т.: Шарқ, 2000.
4. Ҳомиджон Ҳомидий. Авестодан Шоҳномага. - Т.: Шарқ, 2007
5. Хоразм mutafakkirlarining pedagogik qarashlari fanidan o‘quv-uslubiy majmua Urganch-2023